




# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

## BO'LAJAK XORIJIY TIL O'QITUVCHILARINING KASBIY-IJODIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

**Kalandarova Safiya Tokhirovna UTAS**

Docent PhD, department of Foreign languages-1

 [orcid: 0009-0005-5255-8916](https://orcid.org/0009-0005-5255-8916)

e-mail: [safiyaxonkalandarova@gmail.com](mailto:safiyaxonkalandarova@gmail.com)

**DOI** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15175497>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali usullari tahlil qilingan. O'qituvchilarning pedagogik faoliyatda ijodiy yondashuvga ega bo'lishi, ularning o'quvchilarga ta'sirchan va interaktiv dars berish qobiliyatlarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratilgan. Tadqiqot davomida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanishning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda mustaqil ta'lim va tajriba almashish usullarining o'rni ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy kompetensiya, ijodiy yondashuv, xorijiy til o'qituvchilari, innovatsion pedagogika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mustaqil ta'lim, tajriba almashish.

**Аннотация:** В статье анализируются эффективные методы развития профессиональных и творческих компетенций будущих учителей иностранных языков. Основное внимание уделяется развитию творческого подхода учителей к педагогической деятельности и их умению эффективно и интерактивно обучать студентов. Исследование выявило важность использования современных педагогических технологий, инновационных методов и информационно-коммуникационных средств. Подчеркивается роль методов самостоятельного обучения и обмена опытом в развитии профессиональных и творческих компетенций преподавателей иностранных языков.

**Ключевые слова:** профессиональная компетентность, творческий подход, преподаватели иностранных языков, инновационная педагогика, информационно-коммуникационные технологии, самостоятельное обучение, обмен опытом.

**Abstract:** This article analyzes effective methods for developing professional and creative competencies of future foreign language teachers. The main focus is on the development of teachers' creative approach to pedagogical activities, their ability to teach students effectively and interactively. The study reveals the importance of using modern pedagogical technologies, innovative methods and information and communication tools. The role of independent learning and experience exchange methods in developing professional and creative competencies of foreign language teachers is also indicated.

**Keywords:** professional competence, creative approach, foreign language teachers, innovative pedagogy, information and communication technologies, independent learning, experience exchange.



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

O'zbekistonda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning yangi bilimlarni mustaqil izlashiga asosiy e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimining 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining "Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan 3-bobining "Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish" deb nomlangan 1-§ da Mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida tayanch kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv uslubiy materiallarni keng joriy etish to'g'risida alohida ko'rsatib o'tilgan.

So'nggi davrda O'zbekiston Respublikasida bo'lajak mutaxassislarni sifat jihatidan turlicha tayyorlashni taqozo etuvchi yangi o'qitish usullarini ta'lim jarayoniga kiritish muammosiga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarning yangi usullarni maktablarda joriy etish uchun taklif etilayotgan ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyati, ularning eng usullarni aniqlashdagi kompetentligi, shuningdek, o'zlarining mualliflik huquqi ko'p jihatdan hozirgi zamonaviy ta'lim muhitining holatini belgilaydi.

Shunday qilib, O'zbekiston ta'lim tizimi oldida kasbiy kompetensiya, analitik fikrlash, rivojlangan ijodiy va tanqidiy fikrlash, tajriba va o'qitishning istiqbolli usullarini qo'llashga tayyorgarlik kabi fazilatlariga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchilarni munosib tayyorlash yo'llari va vositalarini izlash vazifasi turibdi. Binobarin, bo'lajak chet tili o'qituvchilarini zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyat voqeligini aks ettiruvchi ta'lim jarayonining innovatsion modeliga yo'naltirilgan kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash zarurati tug'ildi.

Zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat bilimlarni uzatishni, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvlarni rivojlantirishni ham talab qiladi. Xorijiy til o'qituvchisi, shuningdek, o'quvchilarni nafaqat tilni o'rganish, balki uning madaniy va ijtimoiy aspektlarini ham tushunishga o'rgatishi kerak. Shuning uchun o'qituvchilarni tayyorlashda ularning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu o'qituvchining kasbiy bilimlari va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o'z ichiga olgan ko'nikmalar majmuasini anglatadi.



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

Asosan, kasbiy-ijodiy kompetensiyaga ega bo'lgan o'qituvchi o'quvchilarga nafaqat tilni, balki uning kontekstida mavjud bo'lgan ijodiy va madaniy elementlarni ham taqdim eta oladi. Shuning uchun, bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarini tayyorlashda metodik yondashuvlarning innovatsion bo'lishi, ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik strategiyalarni o'z ichiga olishi kerak.

***Kasbiy-ijodiy kompetensiya tushunchasi*** - bu o'qituvchining pedagogik faoliyatida ijodiy yondashuvni qo'llash, o'quvchilarning tilni o'zlashtirishdagi motivatsiyasini oshirish va ular bilan muvaffaqiyatli muloqot o'rnatish qobiliyatidir. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda ijodiy yondashuvlarning muhimligi shundaki, ular o'qituvchining o'quvchilarga yangi g'oyalar bilan murojaat qilish, interfaol metodlarni qo'llash va o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rag'batlantirish imkonini beradi.

Xorijiy til o'qituvchilari ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilaridan biri hisoblanadi. Ularning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Bu kompetensiyalar pedagogik jarayonda o'qituvchilarning ijodiy yondashuvini oshirish, talabalarga innovatsion va interaktiv metodlar orqali ta'lim berish imkoniyatini yaratadi. Ushbu maqolada bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha samarali usullar atroflicha va quyidagicha yoritiladi:

• *Kasbiy kompetensiya va ijodiy yondashuv o'qituvchilarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalari ularning dars jarayoniga yangilik kiritish qobiliyati, pedagogik innovatsiyalarni qo'llay olish mahorati va mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o'z ichiga oladi;*

• *Innovatsion pedagogik texnologiyalar zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonida muhim o'rin egallaydi. Multimediali vositalardan foydalanish, onlayn platformalar orqali darslarni tashkil qilish o'quvchilarning tilni o'zlashtirish jarayonini samaraliroq qiladi;*

• *Axborot-kommunikatsiya, ya'ni internet va raqamli texnologiyalar yordamida xorijiy til o'qitishda yangi yondashuvlar paydo bo'ldi. Onlayn darslar, video resurslar, sun'iy intellekt yordamida til o'rganish kabi usullar o'qituvchilar kompetensiyalarini oshirishga xizmat qiladi;*

• *Tajriba almashish usuli orqali o'qituvchilar turli seminarlar, konferensiyalar va malaka oshirish dasturlari orqali o'zaro tajriba almashishlari mumkin. Bu*



## XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

*nafaqat ularning bilim doirasini kengaytiradi, balki kasbiy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi;*

• *Mustaqil ta'lim orqali o'qituvchilar o'z faoliyatini tahlil qilishi, muammolarni aniqlashi va o'z pedagogik mahoratini oshirishi mumkin. Bu ta'lim jarayonida muhim vositalardan biri bo'lib, doimiy ravishda o'z-o'zini baholash va rivojlantirishga turtki beradi;*

**Mustaqil ish** - bu o'quvchilarning o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, o'z-o'zini o'rganish va ijodiy faoliyatini oshirish maqsadida bajaradigan ishlaridir. Bu ishlar o'quvchilarga muammolarni hal qilish, yangi g'oyalarni ishlab chiqish va o'z fikrlarini ifodalashda yordam beradi. Ta'lim jarayonlarida xorijiy tillarni o'qitishda asosan mustaqil ishlarni tashkil etishning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

• *Ma'lumotga asoslangan rejalashtirish:* Mustaqil ishlar asosan o'quv dasturi va mavzularga mos ravishda rejalashtiriladi. Bunda o'quvchilar uchun aniq maqsadlar va vazifalar belgilanishi lozim bo'ladi.

• *Resurslarni tayyorlash:* O'quvchilarga kerakli resurslar, manbalar va boshqa materiallar taqdim etilishi kerak. Bu materiallar mustaqil ishlar uchun yordam beradi.

• *Natijalarni baholash:* Mustaqil ishlar tugagach, o'quvchilarning natijalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish lozim. Bu o'quvchilarning o'z-o'zini baholash imkoniyatini yaratadi.

• *Loyihalar asosida o'qitish:* O'quvchilarga aniq loyiha topshiriqlari berish, bu jarayonda ularning ijodiy yondashuvlarini rivojlantiradi. Masalan, o'quvchilar biror muammoni hal qilish yoki yangi g'oyani ishlab chiqish maqsadida loyiha yaratishlari mumkin.

• *Tadqiqot ishlarini bajarish:* O'quvchilar mustaqil ravishda tadqiqot olib borishlari kerak. Bu jarayon ularning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va ijodiy yechimlar topishga yordam beradi. Tadqiqotlar uchun mavzularni tanlashda qiziqishlarini hisobga olish lozim.

• *Ijodiy amaliyotlar:* O'quvchilar amaliy mashg'ulotlar orqali ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Masalan, chet tili darslarida ushbu amaliyotni ko'proq adabiy mavzularda, she'rlarni rollarga bo'lib o'qish yoki biron bugungi kunda dolzarb mavzudagi muommoli vaziyatlarni guruhlarda teatrlashtirish orqali rivojlantiriladi.



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

•*Guruhli faoliyatlar:* O'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib, birgalikda muammo yechish, g'oyalar almashish va ijodiy yechimlar ishlab chiqish imkoniyati beriladi. Guruhda ishlash orqali o'zaro tajriba almashish va kreativ fikrlashni oshirish mumkin.

Asosan quyidagi asosiy aspektlar xorijiy tillarni o'qitishda mustaqil ishlarni samarali va to'g'ri tashkillashtirish orqali ularning ijodiy faolligi rivojlantiriladi:

•*Ijodiy yechimlar:* O'quvchilar mustaqil ishlarida yangi g'oyalar va yechimlar ishlab chiqadilar. Bu jarayonda ularning ijodiy fikrlashlari rivojlanadi.

•*O'z fikrini ifodalash:* Mustaqil ishlar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini aniq va ravon ifodalashni o'rganadilar. Bu orqali ularning muloqot qilish qobiliyatlarini ham oshiradi.

•*Muammolarni hal qilish:* O'quvchilar mustaqil ishlarida muammolarni aniqlash va ularni hal qilish uchun yangi yondashuvlar ishlab chiqadilar.

•*Innovatsion fikrlash:* Mustaqil ishlar ijodiy faoliyatni oshirish orqali o'quvchilarda innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

•*Baholash mezonlari:* O'quvchilarning mustaqil ishlarini baholashda aniq mezonlar va kriteriyalarni belgilash lozim. Masalan, ijodiy yondashuv, natijalar sifatlari, vaqtni boshqarish va guruhda ishlash qobiliyatlarini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

•*O'z-o'zini baholash:* O'quvchilarga o'z ishlarini baholash imkoniyatini berish juda muhim hisoblanadi. Bu ularning o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyatini oshiradi.

Xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish doimiy o'zgarib borayotgan ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion yondashuv, axborot texnologiyalaridan foydalanish, mustaqil ta'lim va tajriba almashish orqali o'qituvchilar samarali va ijodiy ta'lim berish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ta'lim sifatining oshishiga, o'quvchilarning xorijiy tilni puxta o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.T.Qalandarova CHET TILIDA SHAXSIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH "Halq talimi" PUBLIC EDUCATION SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN 2024(Yanvar-Fevral)
2. S.T.Qalandarova TIL PORTFOLEYSINI INTEGRALLASHUVI VA UNING YONDASHUVLARI. TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY



# XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

*mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani*

XABARNOMASI ILMIY-USLUBIY JURNAL 2024/№1 sentabr TERMIZ-2024 ISBN 3060-4661

3. S.T. Kalandarova. On the issue of formation a professional foreign language communicative competence of students in technical specialties//«Глобаллашув шароитида сув хўжалигини самарали бошқариш муаммолари ва истиқболлари» мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами (2017 йил 11-12 апрель).– Тошкент: ТИМИ, 2017, 109-112 б.
4. S.T.Kalandarova Forming business communication skills and Interdisciplinary approach to study English // International scientific and practical conference// April 1, 2021 JIZZAX – 2021-106 б
5. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va Pedagogik mahorat. - T.: 2003.
6. Sh.Sharipov, N.Muslimov, M.Ismoilova: "Kasbiy ta'lim pedagogikasi". Metodik qo'llanma. - T. 2005.
7. M.Usmonboeva, G.Anorkulova, G.Shamaripxodjaeva "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" o'quv uslubiy majmua. T. 2015 yil.
8. Ishmuhamedov R, Abduqodirov A, Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - T.: "Iste'dod", 2008.
9. Azizxodjayev A. "Pedagogik innovatsiyalar va ularning xorijiy til o'qitish jarayonidagi roli" - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
10. Xolbekov R. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar" - Samarqand: Ilm-fan, 2019.